

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



O'RGANILAYOTGAN TILTARIXI
(Arab)

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 230 000 – Tillar

Mutaxassislik: 70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent – 2022

CBF

cephal

W. Jones

Fan/modul kodi OTT 1204	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4					
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4					
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)				
	O'r ganilayotgan til tarixi	48	72	120				
2.	I. Fanning mazmuni							
<p>“O'r ganilayotgan til tarixi” fani arab tili tarixini o'r ganishda xizmat qiluvchi yozma manbalar, adabiy til tarixini davrlashtirish masalasi, arab yozma adabiy tilining yuzaga kelishi, uning tarixiy bosqichlari, arab tilshunosligi va uning yuzaga kelishi tarixi, qadimgi arab tili, klassik arab adabiy tili, arab adabiy tilining fonetik, leksik va grammatic xususiyatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni qamraydi.</p>								
<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkidiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>Kirish. “O'r ganilayotgantil tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanning o'r ganish va o'r gatish chegaralari. Uning boshqa fanlar qatorida egallagan o'rni.</p> <p>Til tarixining jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniyat tarixi, xalqning diniy-falsafiy qarashlari, qo'shni xalqlar bilan bo'lgan madaniy-siyosiy, savdo munosabatlari bilan bog'liqligi.</p> <p>Arab til tarixini o'r ganishda xizmat qiluvchi manbalar. Yozma yodgorliklar til tarixini o'r ganishda eng ishonchli manbalardir. Xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning til tarixini o'r ganishdagi o'rni. Til tarixini o'qitishning metod va usullari.</p> <p>Arab yozuvi tarixi</p> <p>Arab yozuvining paydo bo'lishi va takomili. Arab kitobati tarixi. Arab kitobati tarixi davrlari: ilk o'rta asrlar va o'rta asrlar. Adabiy til tarixini davrlashtirish masalasi. Eng qadimgi arab tili (johiliyatdan oldin, johiliyat davri va ilk islom davri arab adabiy tili). Eng ko'hna arab yozma yodgorliklari tili (johiliyat davrining mashhur shoirlarining she'rlari, "Muallaqot", Qur'oni karim - arab adabiy tilining eng nodir yozma yodgorligi sifatida). Arab xalifaliklari davrida islom madaniyati va arab adabiy tili.</p> <p>Arab tilshunosligi tarixi</p> <p>Grammatical risolalar va arab grammaticasining tuzilishi. Dastlabki arab</p>								

lug'atlari va ularning strukturasi. Arab tilshunosligi va uning yuzaga kelishi tarixi. Arab xalifaliklari (Basra, Kufa, Bag'dod) davrida tilshunoslik. Sharq, xususan, arab tilshu-nosligi asosida shakllangan Andaluziya va Movaraunnahr arab tilshunosligi.

Arab tilining tarixiy fonetikasi

Arab fonetikasi tarixi. Tajvid qoidalari, ya'ni harflarni aniq talaffuz qilish haqidagi ilm. Klassik arab tilining fonetik xususiyatlari. Unlilar tizimi. Undoshlar tizimi. Fonetik hodisalar. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya, akkomodatsiya.

Arab tilining tarixiy morfologiysi

Ism so'z turkumi. Fe'l so'z turkumi. Harf so'z turkumi. Morfemika. So'zning morfem qurilishi. Arab tilida amal qiluvchi so'z yasash yo'llari.

So'z turkumlari. Ism va uning kategoriyalari (kelishik, jins, son, aniqlik va noaniqlik kategoriyasi). Otlarning yasalishi. Son. Sanoq son. Sonning darajalari: birliklar, o'nliklar, yuzliklar, mingliklar, murakkab sonlar. Tartib sonlar. Kasr sonlar. Foizni ifodalash.

Fe'l va uning kategoriyalari. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon fe'l. Hozirgi-kelasi zamon fe'l. Fe'lning sifatdosh formalari, ularning yasalishi. Ravishdosh. Masdar. Fe'l mayllari.

Yordamchi so'zlar: predloglar, yuklamalar, artikil, bog'lovchilar va h.k.

Arab tilining tarixiy sintaksisi

Sodda gap va uning turlari. Murakkab gaplar. Qo'shma gaplar. Ergash gap turlari. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gap bo'laklari: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. Gapning uyushiq bo'laklari. Sodda gapning maxsus turi. Qo'shma gaplar va ularning turlari: bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bir necha ergash gapli qo'shma gap. Ko'chirma gapGap bo'lagi bo'la olmaydigan jumla. Gap bo'lagi o'rniда bo'la oladigan jumlalar. Ega va fe'liy gapning egasi vazifasida keluvchi jumla; Gapning kesim vazifasida keluvchi jumla; Hol vazifasida keluvchi jumla; To'ldiruvchi vazifasida keluvchi jumla; Moslashmagan aniqlovchi vazifa-sida keluvchi jumla; Shart ergash gapli qo'shma gap. Aniqlovchi ergash gap

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzulartavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar arab til tarixining muhim nazariy jihatlariga e'tibor qaratadilar. Mahmud Zamaxshariyning "Al-unmuzaj fi-n-nahv" asarini o'rganish, leksik, grammatik jahatdan tahlil qilish. Undagi grammatik terminlarni yod olish, arab tili grammatikasini o'rgatish uslubini o'rganish.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

So'z, so'z turkumlari va gapning ta'rifi.

Ism turlari, atoqli va turdosh otlar. Turlanadigan ismlar.

Uch kelishikli va ikki kelishikli ismlar.

Bosh kelishikdagi ismlar, ega, kesim. Asliga o'xshash bosh kelishikdagi ismlar.

Tushum kelishigidagi ismlar: Mutloq masdar. Vositasiz to'ldiruvchi, o'rin-payt hollari, sabab maqsad holi, birgalik to'ldiruvchisi.

Asliga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar. Holat holi, cheklash, istisno, қан ишларини, bobidagi ega-kesimlar haqida.

Qaratqich kelishigidagi ismlar. Ma'naviy va lafziy izofa.

Turlanadigan ismlar bilan moslashadigan tobe so'zlar, ta'kid, moslashgan aniqlovchi, izohlovchi va hokazo.

Turlanmaydigan ism. Kishilik olmoshlari, nisbiy olmoshlar, ko'rsatish olmoshlar.

Aniq va noaniq holatdagi ismlar.

Ikkilik son. Ko'plikdagi ismlar. To'g'ri ko'plik, siniq ko'plik.

Muzakkar va muannas ism. Haqiqiy muannas jinsi va lafziy muannas jinsdag'i ism. Kuchaytirma otlar.

Kam miqdorni bildiruvchi kuchaytirma otlar va ko'p miqdorni bildiruvchi ko'chaytirma otlarning ko'pligi.

Nisbiy otlar

Sanoq sonlar, ularning sanalmish bilan moslashishi.

Masdar, aniq va majhul daraja sifatdosh. Elativ-sifatning orttirma darajasi.

Fe'l bobo. O'tgan zamon, hozirgi va kelasi zamon fe'llari. Buyruq mayli.

O'timli va o'timsiz fe'l. Majhul darajadagi fe'l. O'yish, hisoblash ma'nosidagi fe'llar

Yordamchi fe'llar. Ish harakatning yaqinligini bildiruvchi fe'llar. Olqish va qarg'ishni ifodalovchi ikki fe'l. Taajjubni ifodalovchi ikki fe'l.

Harf bobo. Predloglar. Fe'llarga o'xshash yuklamalar.

Bog'lovchilar. Inkor yuklamalari. Ogohlantiruvchi yuklamalar. Tasdiq yuklamalari.

Bog'lovchi yuklamalar. Undash, da'vat qilish yuklamalari. So'roq yuklamalari.

Shart yuklamalari. Muannas jinsining skunli "t"si. Kuchaytiruvchi "nun",

Pauzal "h".

Tushuntirish, izoh berish yuklamalari, Undash, da'vat qilish yuklamalari, kelasi zamon yuklamasi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor va o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislardan chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha slaydlar va ko'rgazmali qurollar, jadvallar tayyorlash tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsija etiladigan mavzular:

Talabalar mustaqil topshirqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko’rsatmalardan foydalanishlari tavsija etildi:

- darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari va dars yo‘rug‘laridan kurs mavzularini o‘rganish;
 - yozuvning kelib chiqishi bilan bog‘liq mavzuni o‘rganish;
 - arab yozuvida mavjud bo‘lgan xat turlarini tahlil etish;
 - tilshunoslikka oid asarlardagi grammatik terminlarni bilish.
1. Johiliyat davrida bitilgan she’rlardan namunalar.
 2. “Ming bir kecha” ertaklarini grammatik tahlil qilish.
 3. Jahizning “Kitabu-l-hayavan” asaridan xalq masal va matallari
 4. Latifa va ertaklardan namunalar tahlil qilish.
 5. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisasu-l-anbiyo”) asarlaridan misollar tahlil qilish.
 6. Mahmud Zamashshariyning “al-Unmuzajfi –n - nahv» asarini o‘rganish
 7. Ibn Manzurning «Lisanal-arab» lug‘atini o‘rganish.
 8. Zamonaviy arab adabiyotining namoyandalari asarlaridan parchalar tahlil qilish.
 9. Mahmud Zamashshariyning “Al-Miyahva-l-amkinava –l-jibal” asaridagi geografik otlarni yig‘ish.
 10. Arab tili grammatikasini o‘rgatish uslublarini tahlil qilish.

3. V.Ta’lim natijaları\Kasbiy kompetentsiyalar

Talaba bilishi kerak:

“O‘rganilayotgan til tarixi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida **magistr**:

- Til tarixining jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixi, xalqning diniy qarashlari, qo‘sni xalqlar bilan bo‘lgan madaniy-siyosiy, savdo munosabatlari bilan bog‘liqligi;
- o‘rganilayotgan til tarixini o‘rganishga xizmat qiluvchi manbalar, yozma yodgorliklarning til tarixini o‘rganishdagi o‘rni **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- o‘rganilayotgan adabiy tilning yuzaga kelishi va uning tarixiy takomili;
- o‘rganilayotgan tilning eng qadimgi davri va o‘rtalarda taraqqiyoti hamda XIX – XX asrdagi holatini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- o‘rganilayotgan tilning tarixiy fonetikasi; o‘rganilayotgan tilning tarixiy leksikologiyasi; o‘rganilayotgan tilning tarixiy morfologiysi; o‘rganilayotgan tilning tarixiy sintaksisi haqida **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak**.

4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

Talabalarning “O‘rganilayotgan til tarixi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va yetakchi usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, arabshunos – tilshunoslarni tayyorlashda o‘tmishda ota –bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilg‘or ta’lim usullarini, notiqlik san’ati, balog‘at

	<p>bilimlari masalalarini egallash, yozma adabiy til, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish mahoratini singdira borish talab etiladi.</p> <p>Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruba matnlari, dars yo'rugi'lari, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalilanadi.</p>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Nosirova M.A. Tilshunoslik bilimlari tarixi (Arab tilshunosligi) / O'quvqo'llanma. – T.: Semurg' media, 2011. – 248 b. 3. Nosirova M.A. O'rta asr arab nahvidan namunalar / O'quv qo'llanma. – T.: TDShI, 2004. 4. Qosimova S.S. Mahmud Zamaxshariyning Al-Unmuzaj fi-n-nahv risolasi / O'quv qo'llanma. – T.: TDShI, 2005.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsий javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 3. Белова А.Г. Очерки по истории иарабского языка. Учебник. – М., 1999. 4. Звегинцев В.А. История арабского языкоznания. Монография. – М., 1985. 5. Imomxo'jaev O. Arab yozushi haqida risola / Sharqshunoslik, maqola. – TDShI, 1998. 6. История лингвистических учений. Средневековый Восток. – Л., 1981. – 300 с. 7. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М., 1972. 8. Конрад Н.И. Старое востоковедение и его новые задачи // Статья. – М., 1972. 9. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1998 10. Современная лингвистика. Теория, проблемы и методы / Монография. – М., 1976. 11. Sodiqov A.A. Abduazizov, Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – T., 1981. 12. Sulaymonova F. Sharq va G'arb / Монография. – T., 1998.</p>

13. Старинин В.П. Структура семитского слова. Прерывистые морфемы. - М.: Вост. лит., 1963. – 110 с.
14. Халидов Б.З. Академик И.Ю.Крачковский (к 100- летию со дня рождения). Статьи // Народы Азии и Африки. 1983.
15. Халидов А.Б., Михайлова И. Библиография арабских рукописей. – М., 1982.
16. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция / Монография. – М.: Наука, 1985. – 305 с.
17. Юшманов Н.В. Грамматика литературного арабского языка / Учебник. – М., 1985.

Axborot manbalari

18. www.almeshkat.com
19. www.drmosad.com
20. www.el-eman.com

- 7.** O‘quv dasturi Arab filologiyasi kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022-yil “___” _____ dagi “___”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022-yil “30” 06 dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
- 8. Fan/modul uchun ma’sul:**
Qosimova S.S.– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dosenti, PhD
- 9. Taqrizchilar:**
Islomov Z. – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, fil.f.d.
Shokirova Z.N. – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Arab tili va adabiyoti al-Azhar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.